

O‘ZBEK TILIDA EVFEMIZMLAR VA ULARNING QO‘LLANISH DOIRASI

Rahimov Fayziddin Rustamovich,

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

E-mail: fayziddinrahimov88@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada evfemizmlar, ularning jamiyat madaniy taraqqiyotida tutgan o‘rni, inson ma’naviy dunyosi, ma’naviy tarbiyasini belgilashdagi ahamiyati, ularning turlari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: evfemizmlar, til birliklari, nutq madaniyati, so‘z birikmalari, tushuncha, leksik ma’no, semantik ma’no, nutq jarayoni, kommunikatsiya, til xususiyatlari, ramziy ma’no.

EUPHEMISMS AND THEIR SCOPE IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract: The article talks about euphemisms, their role in the cultural development of society, their importance in determining the spiritual world and spiritual education of a person, and their types.

Key words: euphemisms, language units, speech culture, word combinations, concept, lexical meaning, semantic meaning, speech process, communication, language features, symbolic meaning.

Har bir xalq nutqi madaniyatining bir bo‘lagi sifatida shakllanadi. Bu o‘sha xalqning so‘zlashuv madaniyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Nutq jarayonida ishlatiladigan iboralar, tasviriy ifodalar, evfemizmlar so‘zlovchining tarbiyasi haqida tasavvurga ega bo‘lishga yordam beradigan eng asosiy vositalardan sanaladi.

Shu bilan birga til-leksik va semantik jihatdan ko‘p qirrali madaniyatni, ko‘p qatlamli jamiyatni qamrab olishga qodir bo‘lgan yaxlit, o‘ziga xos bir butun olam. Buni amerikalik madaniy sotsiologiya sohasi mutaxassisi N.Smelzerning quyidagi fikrlari

tasdiqlaydi: “madaniyatning barcha elementlari...tilda ifodalanishi mumkin” [2. 52 b.]. U tilni odamlar tajribasini shakllantirish va tashkil etishga katta hissa qo‘shadigan ijtimoiy-madaniy omil sifatida ko‘rib, yana shunday deydi: “Yaxlit madaniyat singari til faqat umumiy qabul qilingan ma’nolarni rivojlantiradi. Kommunikatsiya (o‘zaro aloqa-muallif izohi) faqatgina nutq ishtirokchilari tomonidan qabul qilingan, ishlatiladigan va ularga tushunarli bo‘lgan ma’nolarni ifodalagandagina o‘rnatilishi mumkin” [2. 53 b.].

Madaniyat bu inson ma’naviyatiningayrim belgi, sifatlar bilan ifodalangan o‘zga olamidir. U inson ichki va tashqi olamini nafaqat bog‘laydi, balki bu olamlarni ajratib turuvchi chegara hamdir. Aynan mana shu chegara inson nutqidagi ba’zi bir dag‘al so‘zlarga ishlov berish ehtiyojini paydo qiladi.

Notiq o‘z fikri va tushunchalarini turli nutq birliklari yordamida ifodalash jarayonida, ba’zan vaziyatni yumshatish, qo‘pol tasvirdan qochish, tinglovchiga hurmat-e’tibor ko‘rsatish maqsadida evfemizmlardan foydalanadi. Evfemizm (yunoncha “eufeme”-yaxshi nurq)-neytral yoki qo‘pol so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladigan emotsional so‘z. Ba’zan bu so‘zlar qo‘pol bo‘lmasligi ham mumkin, lekin so‘zlovchi yanada chiroyli, yanada mayin variantni ishlatishni lozim ko‘radi. Masalan: yig‘ladi-ko‘zyosh qildi; ishladi-ter to‘kdi; dam oldi-nafas rosladi.

“Ba’zan biror bir tushunchani o‘z nomi bilan emas, shunga mos keladigan boshqa so‘zlar yoki iboralar bilan ifodalash talab qilinadi. Bunda muayyan tilning urf-odatlarini shunday qilishga undaydi... aytilishi noqulay bo‘lgan so‘zlar o‘rniga qo‘llaniladigan silliq, yumshoq so‘zlar evfemizmlar deyiladi” [1. 42 b.].

Aslida evfemizmlar ijtimoiy nazorat qattiq bo‘lgan nutq vaziyatida ko‘proq ishlatiladi. Masalan: so‘kdi so‘zi o‘rniga “shaxsiyatiga tegdi” so‘z birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq.

“Evfemizm-so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar. Evfemizm salbiy voqelikni ifodalashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me’yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri

aytish mumkin bo‘lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta‘sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish, noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi” [3. 56 b.].

Evfemizmlar mavzusiga murojaat qilinganda, nafaqat evfemik iboralar, balki shu evfemizmgga ehtiyoj tug‘dirgan ijtimoiy-madaniy va til sharoiti ham tadqiq etiladi. Bunda ko‘pincha tilshunoslar diqqatidan chetda qoladigan so‘zlashuv nutqiga e‘tibor qaratgan ma‘qul. Noqulay leksika va yoqimsiz so‘zlar muayyan madaniy me‘yorlarga rioya qiluvchi til tashuvchisi sifatida tadqiqotchida norozilik tuyg‘ularini uyg‘otadi, qo‘pol leksik materiallar (xo hog‘zaki, xoh yozma shaklda bo‘lsin) bilan to‘qnashish unda ma‘naviy diskomfort tug‘diradi.

Zamonaviy o‘zbek tilida nutqning qo‘pollashuvi (disfemizimizatsiyalashuv, masalan: nosog‘lom ovqat-zararli, o‘ta kuchli ovqat) va evfemizatsiyalashuvi kabi ikki qarama-qarshi an‘ana, oqim kun sayin yorqin namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqolaning tahlil ob‘yekti bo‘lmasa ham aniqlik uchun birinchi oqim haqida qisman fikr yuritamiz. Bugungi kunda qo‘pol leksika, adabiy me‘yorga rioya qilmasdan shevada gapirish nafaqat oddiy odamlar orasida, balki davlat xizmatchilari, ba‘zi bir siyosatchilar, radio-televide niye xodimlari nutqida ko‘rinib qolayotganligi juda achinarli holat hisoblanadi. Masalan, “quloqqa lag‘mon osmang” kabi iboralar, har xil chet tilidan kirgan noo‘rin ishlatiladigan so‘zlar (Ok, yes, I, dalshe, uje va h.k.)ning ziyoli doiralar tomonidan ishlatilishi yoki yoshlar nutqida so‘kish so‘zlarning juda ko‘payib ketganligi hozirgi kunning dolzarb muammosiga aylandi.

Bu holatlarning aksi o‘laroq, evfemik birikmalarni ishlatish ham hozirgi kunda sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Siyosiy, madaniy, ijtimoiy sohalar hamda kundalik turmushda ishlatiladigan ba‘zi so‘zlar o‘rniga evfemizmlarni foydalanish aslida unchalik shart emas. Masalan:

Baqirdi-ovozini balandlatdi, baland ohangda murojaat qildi;

O‘ldi-vafot etdi, qazo qildi, omonatini topshirdi, yuragi urishdan to‘xtadi;

Homilador-ikkiqat, og‘iroyoq, yukli, farzand kutyapti;

Urush-qurolli mojaro, qurolli to‘qnashuv;

Nogiron-imkoniyati cheklangan

Tug‘di-farzand ko‘rdi, ko‘zi oydin bo‘ldi;

Tug‘ildi-dunyoga keldi, tavallud topdi;

Er-umr yo‘ldosh;

Xotin-rafiqa, umr yo‘ldosh;

Ishdan bo‘shatish-vazifasidan ozod qilish;

Qari-yoshi ulug‘;

Kelishmovchilik-tarang munosabat, keskin munosabat.

Ijtimoiy evfemizmlar ob‘yekt, harakat, xususiyatni boshqa nomlash usullariga taqqoslaganda muloyimroq tarzda ataydi. Masalan, “kar” so‘zi o‘rniga “qulog‘i og‘ir”, “ko‘r” so‘zi o‘rniga “ko‘zi ojiz” kabi evfemizmlarnim ishlatish nutq egasining madaniy saviyasini belgilaydi. Evfemik birliklar so‘zlovchi nutqining nazokatli bo‘lishini ta‘minlaydi va shu tarzda uning ma‘naviy dunyosi hamda madaniyatlilik darajasini belgilashga xizmat qiladigan unsurlar hisoblanadi.

Shunday qilib, til va madaniyat kommunikativlik, qimmatli ramziy xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali hodisalardir. Madaniyat insonning ijtimoiy ishlab chiqarish, moddiy qadriyatlarni taqsimlash hamda ulardan foydalanish tizimidagi o‘rnini belgilaydi. U yaxlit tizim bo‘lib, o‘ziga xos individual umumiy g‘oya va uslubga ega. Til nafaqat madaniyatda mavjud narsalarni nomlaydi, ifodalaydi, balki o‘zi shu madaniyatda o‘sib, uni ham rivojlantiradi, shakllantiradi. Madaniyat insoniyat tajribasini to‘plovchi va uni avloddan-avlodha yetkazuvchi murakkab va ko‘pqirrali lingvistik tizimni shakllantiradi. Tilning mavjudlik shakli jamiyatning moddiy va ma‘naviy madaniyatining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamrayev M. Ona tili. T., 2012 y.
2. Smelzer N. Sotsiologiya. M., 1994 y.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov N. O‘zbek tili stilistikasi. T., 1983 y.
4. Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. T., 2000 y.